0 95

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

JINOYAT HUQUQI

(UMUMIY QISM)

O‘QUV QO‘LLANMA



«YURIDIK ADABIYOTLAR PUBLISH»

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

X.R. OCHILOV

JINOYAT HUQUQI

(Umumiy qism)

O‘QUV QO‘LLANMA

223459

ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI
VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI
«AXBOROT RESURS MARKAZI»

Toshkent
«Yuridik adabiyotlar publish»
2022

UO'K: 343.2/.7(075.8)
KBK: 67.408ya73
O–95

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

JINOYAT HUQUQI.
(Umumiy qism)
O'quv qo'llanma. Ochilov X.R.
– Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022-y. – 176 bet.

Taqrizchilar:

E.O. Turg'unboyev.
Jinoyat ishlari bo'yicha
Toshkent shahar sudi sudyasi, yu.f.n.

M.Q. O'razaliyev.
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va
korrupsiyaga qarshi kurashish
kafedrasi professori, yu.f.d. (DSc).

Ushbu o'quv qo'llanma «Jinoyat huquqi» (Umumiy qism) o'quv kursining dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, qo'llanmada jinoyat qonuni prinsiplari, jinoyat tushunchasi va uning belgilari, jinoiy javobgarlik va uning asoslari, jinoyat tarkibi va uning elementlari, tamom bo'lmagan jinoyatlar, ishtirokchilik, bir qancha jinoyat sodir etish, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar, jazo tushunchasi, maqsadi va uning turlari, jazo tayinlash, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish, voyaga yetmaganlar javobgarligi hamda tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Ushbu o'quv qo'llanma Jinoyat huquqi Umumiy qismi bo'yicha kerakli ma'lumotlarni olishga, oliy yuridik o'quv yurtlarining professor o'qituvchilariga dars jarayonlarini tashkil etishga, talabalarning o'quv mashg'ulotlar va imtihonlarga, amaliyotga tayyorgarlik ko'rishida yordam beradi.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining bakalavr va magistratura talabalariga qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

Ushbu o'quv qo'llanma amaldagi Jinoyat kodeksining 2022-yil may oyigacha bo'lgan holatiga ko'ra yozilgan.

ISBN 978-9943-8010-5-9

© Ochilov X.R., 2022-y.

© Yuridik adabiyotlar publish, 2022-y.

MUNDARIJA

Kirish 10

1-mavzu: JINOYAT QONUNI 11

1.1. Jinoyat qonuni tushunchasi, vazifalari va prinsiplari 11
1.2. Jinoyat qonunining tuzilishi 12
1.3. Jinoyat qonunining hudud va vaqt bo'yicha amal qilishi 14
1.4. Jinoyat qonunining orqaga qaytish kuchi 17
1.5. Jinoyat qonunini sharhlash 19

2-mavzu: JINOYAT TUSHUNCHASI 22

2.1. Jinoyat tushunchasi, uning belgilari va boshqa huquqbuzarliklardan farqi 22
2.2. Jinoyatlarni tasniflash tushunchasi va turlari 22

3-mavzu: JINOIY JAVOBGARLIK VA UNING ASOSLLARI 25

3.1. Jinoiy javobgarlik tushunchasi va uning asoslari 25

4-mavzu: JINOYAT TARKIBI 26

4.1. Jinoyat tarkibi tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari 26
4.2. Jinoyat tarkibi elementlari tushunchasi va turlari 27

5-mavzu: JINOYAT OBYEKTI 31

5.1. Jinoyat obyekti tushunchasi va jinoyat tarkibidagi ahamiyati 31
5.2. Jinoyat obyektining turlari 31
5.3. Jinoyat obyektining jinoyat predmetidan farqi 33

6-mavzu: JINOYATNING OBYEKTIV TOMONI 35

6.1. Jinoyatning obyektiv tomoni tushunchasi va uning belgilari 35

6.2. Ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi sifatida 36

6.3. Ijtimoiy xavfli oqibat jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi sifatida 37

6.4. Jinoyat huquqida sababiy bog'lanish tushunchasi 38

6.5. Jinoyat obyektiv tomonining fakultativ belgilari 39

7-mavzu: JINOYATNING SUBYEKTIV TOMONI 40

7.1. Jinoyatning subyektiv tomoni tushunchasi va belgilari 40

7.2. Jinoyat subyektiv tomonining zaruriy belgisi sifatida ayb va uning shakllari 40

7.3. Murakkab aybli jinoyatlar 44

7.4. Xato tushunchasi va turlari 45

7.5. Jinoyatning motivi, maqsadi va emotsiyalar 46

8-mavzu: JINOYAT SUBYEKTI 48

8.1. Jinoyat subyekti tushunchasi va uning belgilari 48

8.2. Jinoyat subyektining yoshi 48

8.3. Aqli rasolik va aqli norasolik tushunchalari 49

8.4. Jinoyat huquqida maxsus subyekt tushunchasi va uning jinoyatni kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati 51

9-mavzu: TAMOM BO'LMAGAN JINOYATLAR 52

9.1. Jinoyat huquqida jinoyat sodir qilish bosqichlari tushunchasi va turlari 52

9.2. Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish tushunchasi va belgilari 53

9.3. Jinoyatga suiqasd qilish tushunchasi va turlari 54
9.4. Tamom bo'lgan jinoyat tushunchasi 56
9.5. Jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik va suiqasd qilganlik uchun javobgarlik 57
9.6. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish tushunchasi va jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytgan shaxslarning javobgarligi 58

10-mavzu: JINOYATDA ISHTIROKCHILIK TUSHUNCHASI, TURLARI VA SHAKLLARI 60

10.1. Jinoyat huquqida ishtirokchilik tushunchasi 60
10.2. Jinoyat huquqida ishtirokchik turlari 61
10.3. Jinoyat huquqida ishtirokchik shakllari 64
10.4. Jinoyat ishtirokchilarining javobgarligi asoslari va doirasi 66
10.5. Ishtirokchilarning harakatlarini kvalifikatsiya qilish 67
10.6. Maxsus subyektlar tomonidan ishtirokchilikda jinoyat sodir etish 70
10.7. Ishtirokchilikda jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning o'ziga xos xususiyatlari 71
10.8. Ekssess bajaruvchi 72
10.9. Jinoyatga daxldorlik tushunchasi va uning turlari 73

11-mavzu: BIR QANCHA JINOYATLAR SODIR ETISH 74

11.1. Jinoyat huquqida bir qancha jinoyat sodir etish tushunchasi va turlari 74
11.2. Bir qancha jinoyatlar sodir etishning alohida jinoyat sodir etishdan farqli jihatlari 74
11.3. Takroran jinoyat sodir etish tushunchasi 76
11.4. Jinoyatlar majmui tushunchasi va turlari 78

11.5. Jinoyatlar majmuining takroran jinoyat sodir qilishdan farqli jihatlari 79
11.6. Retsidiv jinoyat tushunchasi va turlari 80

12-mavzu: QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILADIGAN HOLATLAR TUSHUNCHASI VA TURLARI 83

12.1. Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasi, turlari va ahamiyati 83
12.2. Kam ahamiyatli qilmishlar tushunchasi 83
12.3. Zaruriy mudofaa tushunchasi va huquqiy shartlari 84
12.4. Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish tushunchasi 87
12.5. Oxirgi zarurat tushunchasi va huquqiy shartlari 87
12.6. Buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish 89
12.7. Kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik qilish tushunchasi va ahamiyati 90
12.8. Jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish 91
12.9. Zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazishning farqli jihatlari 92

13-mavzu: JAZO TIZIMI VA TURLARI 96

13.1. Jinoyat huquqida jazo tushunchasi va maqsadi 96
13.2. Jinoyat huquqida jazo tizimi tushunchasi va turlari 97
13.3. Asosiy va qo'shimcha jazolar tushunchasi va turlari 98
13.4. Jarima jazosi 98
13.5. Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi 100
13.6. Majburiy jamoat ishlari jazosi 102

13.7. Axloq tuzatish ishlari jazosi 102
13.8. Xizmat bo'yicha cheklash jazosi 103
13.9. Ozodlikni cheklash jazosi 104
13.10. Intizomiy qismga jo'natish jazosi 106
13.11. Ozodlikdan mahrum qilish jazosi 107
13.12. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi 109
13.13. Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish jazosi 110

14-mavzu: JAZO TAYINLASH 111

14.1. Jinoyat huquqida jazo tayinlashning umumiy asoslari 111
14.2. Jazoni yengillashtiruvchi holatlar 111
14.3. Jazoni og'irlashtiruvchi holatlar 112
14.4. Yengilroq jazo tayinlash 113
14.5. Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganida jazo tayinlash 113
14.6. Tamom bo'lmagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash 114
14.7. Bir necha jinoyat sodir etganlik uchun jazo tayinlash 116
14.8. Bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash 121
14.9. Jazolarni qo'shishning hisoblash qoidalari 124

15-mavzu: JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH 126

15.1. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi, turlari, ahamiyati va shartlari 126
15.2. Javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish 126
15.3. Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish 129
15.4. Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish 130

15.5. Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish 131
15.6. Kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish..... 132
15.7. Amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish..... 133

16-mavzu: JAZODAN OZOD QILISH 135

16.1. Jazodan ozod qilish tushunchasi va turlari..... 135
16.2. Jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish..... 136
16.3. Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish 138
16.4. Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish 139
16.5. Shartli hukm qilish orqali jazodan ozod qilish 140
16.6. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish 142
16.7. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish..... 144
16.8. Kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotishi oqibatida jazodan ozod qilish 147
16.9. Amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish 148

17-mavzu: SUDLANGANLIK..... 151

17.1. Jinoyat huquqida sudlanganlik tushunchasi, huquqiy ahamiyati va oqibatlari..... 151
17.2. Sudlanganlik holatining tugallanishi..... 151
17.3. Sudlanganlikni olib tashlash 153
17.4. Sudlanganlik holatining tugallanishi yoki sudlanganlikni olib tashlash muddatlarini hisoblash 154

18-mavzu: VOYAGA YETMAGANLARNING JAVOBGARLIGI 156

18.1. Jinoyat huquqida voyaga yetmaganlar javobgarligining o'ziga xos xususiyatlari 156

18.2. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jarima, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash jazolarini tayinlash 156

18.3. Voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash 158

18.4. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlash 160

19-mavzu: VOYAGA YETMAGANLARNI JINOIY JAVOBGARLIKDAN VA JAZODAN OZOD QILISH 162

19.1. Voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilish tushunchasi va turlari 162

19.2. Majburlov choralarini qo'llagan holda javobgarlik yoki jazodan ozod qilish 163

19.3. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish 164

19.4. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish 166

20-mavzu: TIBBIY YO'SINDAGI MAJBURLOV CHORALARI 168

20.1. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tushunchasi va maqsadi 168

20.2. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash asoslari va ularning turlari 168

20.3. Jazo bilan birga tayinlanadigan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash 171

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati 172

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, qisqa vaqt ichida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida islohotlar olib borish va shu orqali demokratik-huquqiy davlat hamda fuqarolik jamiyati barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar tizimida sud-huquq islohotlari alohida o'rin egallaydi. Sud-huquq islohotlari natijasida inson huquq va erkinliklari kafolatlandi, bu boradagi xalqaro miqiyosdagi standartlar va normalar tan olindi hamda milliy qonunchiligimizga joriy etildi. Jumladan, jinoyat qonunchiligini liberallashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida jinoyat qonunchiligida yangi institutlar va jazo turlari joriy etildi, jinoyatlar tasnifi o'zgartirildi. Bir so'z bilan aytganda, jinoyat qonunining qonuniylik, insonparvarlik va odillik prinsiplarida aks etgan asosiy g'oyalar o'zining amaliy ifodasini topib bormoqda.

Mazkur o'quv qo'llanma ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari asosida tayyorlangan bo'lib, «Jinoyat huquqi» (Umumiy qismi) faniga oid fan dasturi (sillabus) rejalari asosida o'tiladigan amaliy mashg'ulot mavzularida ko'rsatilgan savollarga amaldagi Jinoyat kodeksi asosida berilgan javoblarni o'zida aks ettirgan.

O'quv qo'llanma talabalarga fan bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga va imtihonlarga tayyorgarlik ko'rishda va kelajakda amaliyotda jinoyat qonuni normalarini amalda to'g'ri tatbiq qilishda yaqindan yordam beradi.

1-mavzu: JINOYAT QONUNI

1.1. Jinoyat qonuni tushunchasi, vazifalari va prinsiplari

O'zbekiston Respublikasining jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlari faqatgina Jinoyat kodeksidan iboratdir.

JK O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro huquqning umume'tirof etgan normalariga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi o'zining ichki uzviy birligi va bir-biriga o'zaro bog'liq jinoyat-huquqiy normalarning mustahkam tizimga ega ekanligi bilan ajralib turuvchi jinoyat huquqi prinsiplarini, jinoiy javobgarlik asoslari va shartlarini, jinoyat deb e'tirof etiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlarni, bunday qilmishlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan huquqiy ta'sir choralari qo'llanilishining turi va chegarasini belgilab beruvchi Oliy davlat organi tomonidan qabul qilingan va oliy yuridik kuchga ega bo'lgan qonun hujjatidir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 1994-yil 22-sentabrda qonun chiqaruvchi organ tomonidan qabul qilingan va 1995-yil 1-apreldan qonuniy kuchga kirgan.

Jinoyat kodeksining vazifalari:

1) jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarni jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash;

2) jinoyatlarning oldini olish;

3) fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iborat.

Jinoyat qonuni ana shu vazifalarni amalga oshirish uchun jinoyat qonunida belgilangan javobgarlikning asoslari va prinsiplariga asoslanadi.

Ushbu prinsiplar: *qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi prinsiplaridir.*

1.2. Jinoyat qonunining tuzilishi

Jinoyat qonuni tizimi Umumiy va Maxsus qismdan tashkil topgan.

Umumiy va Maxsus qism o'z o'rnida bo'limlar, bo'limlar – boblardan, boblar – moddalardan va moddalar esa, qism hamda bandlardan iboratdir.

Jinoyat qonuni Umumiy qismi: 7 bo'lim, 17 bob va 1–96-moddalarni, Maxsus qism esa 8 bo'lim, 26 bob va 97–302-moddalarni o'z ichiga oladi. Jinoyat qonuniga kiritiladigan har qanday o'zgartish va qo'shimchalar Jinoyat qonuni tizimiga ta'sir etmaydi. Yangi kiritiladigan bob, modda mavjud bob yoki moddaga ilova (prim. yoki ikki, uch va h.k belgili modda) shaklida kiritiladi. (Masalan: XX^{1} bob (XX^{prim} bob), 66^{1}-modda (66^{prim}-modda), 244^{3}-modda ($244^{-uch\ belgili}$ modda).

Jinoyat-huquqiy norma:

- gipoteza;
- dispozitsiya;
- sanksiyadan tashkil topadi.

Gipoteza deb normaning qo'llanilishi shart-sharoitini ko'rsatuvchi modda qismiga aytiladi.

Odatda, maxsus qism normalarida gipoteza mavjud bo'lmaydi, u umumiy qoida sifatida, JKning 16-moddasi («Jinoiy javobgarlik tushunchasi va asoslari») qoidalaridan kelib chiqadi.

Dispozitsiya deb ijtimoiy xavfli qilmishning belgilarini ifodalovchi modda qismiga aytiladi.

Ushbu belgilar aniq ko'rinishdagi jinoyat tarkibini ifodalaydi. Dispozitsiyaning besh turi mavjud bo'lib. Ular:

- oddiy;
- tasvirlov;
- blanket;
- havolaki;
- aralash.

Oddiy dispozitsiya deb jinoyat tarkibining belgilari ochib berilmaydigan, muayyan qilmishni jinoyat deb nomlaydigan dispozitsiya turiga aytiladi (mas: JK 97-modda 1-qismi «Qasddan

odam o'ldirish», 267-modda 1-qismi «Transport vositasini olib qochish»).

Tasvirlov dispozitsiya deb muayyan qilmishni nafaqat jinoyat deb nomlaydigan, jinoyat turining belgilarini ochib beradigan dispozitsiyaga aytiladi (mas: JK 169-moddasi 1-qismi «O'g'rilik, ya'ni o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish»).

Blanket dispozitsiya deb muayyan jinoyat turining belgilari boshqa bir huquq sohasiga tegishli bo'lgan normativ hujjatlar asosida aniqlanadigan dispozitsiya turiga aytiladi (mas: JK 259-moddasi 1-qismi, «Yong'in xavfsizligi qoidalarining shu qoidalar bajarilishi uchun mas'ul bo'lgan shaxs tomonidan buzilishi badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa» deyilgan. Bu yerda yong'in xavfsizligi qoidalarining aynan qaysi bir turi buzilganligini aniqlash uchun yong'in xavfsizligi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishni nazarda tutuvchi qonun yoki qonun osti normativ hujjatlariga murojaat etishni nazarda tutadi).

Havolaki dispozitsiya deb moddaning mazmunini aniqlash uchun JK Maxsus qismning boshqa bir moddasiga yoki ayni bir moddasining boshqa qismiga murojaat etilib aniqlanishi nazarda tutiladigan dispozitsiya turiga aytiladi (mas: JK 105-moddasi 1-qismi, Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazganlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi moddada sog'liqqa yetkazilgan zarar sodir etilayotgan paytda hayot uchun xavfli bo'lmagan va ushbu Kodeksning 104-moddasida nazarda tutilgan oqibatlarga olib kelmagan bo'lishi kerak, deb ta'kidlangan. Demak, ushbu holatda modda dispozitsiyasi JK 104-moddasiga murojaat qilish lozimligini anglatishi uning havolaki dispozitsiya ekanligini anglatadi).

Aralash dispozitsiya deb esa dispozitsiyaning ikki yoki undan ortiq turi bir vaqtda mavjud bo'ladigan dispozitsiya turiga aytiladi (masalan: JK 137-moddasi «Odam o'g'irlash»).

Sanksiya deb dispozitsiyada ko'rsatilgan qilmishni aybli sodir qilganlik uchun tayinlanishi mumkin bo'lgan (umumiy qoidaga ko'ra) jazo turi va miqdorini ifodalovchi norma qismiga

aytiladi. Sanksiya rag'batlantiruvchi bo'lishi ham mumkin. Masalan, yetkazilgan moddiy zararning o'rni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmasligi to'g'risidagi qoida.

Amaldagi JK da sanksiyaning uch turi kuzatiladi. Bular:

- alternativ;
- nisbiy-muayyan;
- kumulyativ sanksiya.

Alternativ sanksiya deb sodir qilingan jinoyat uchun ikki yoki undan ortiq jazo turlaridan birini qo'llashni nazarda tutuvchi sanksiya turiga aytiladi. Masalan, JK 99-moddasi sanksiyasida bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanish nazarda tutilgan. Mazkur holatda nisbiy-muayyan alternativ sanksiyani ko'rishimiz mumkin.

Nisbiy-muayyan sanksiya deb jazo miqdorining muayyan chegarasini (eng quyi va eng yuqori darajasini yoki eng yuqori chegarasini) belgilovchi sanksiya turiga aytiladi. Masalan, JK 118-moddasi 1-qismida uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanish, JK 260-moddasi 2-qismida sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanish nazarda tutilgan.

Agar modda sanksiyasida jazo turining quyi darajasi ko'rsatilmagan bo'lsa, JK Umumiy qism qoidalar asosida JKning X bobi (Jazo tushunchasi, maqsadlari va turlari) va XV bobida (Jazo va uni tayinlash) jazo turlari uchun nazarda tutilgan umumiy muddatlar va miqdorlar asosida tayinlanadi.

Kumulyativ sanksiyada esa asosiy jazo bilan birga qo'shimcha jazo ham tayinlanishi nazarda tutiladigan sanksiya turiga aytiladi. Masalan, JK 266-moddasi 2-qismi sanksiyasida muayyan huquqdan mahrum qilib, yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanish nazarda tutilgan.

1.3. Jinoyat qonunining hudud va vaqt bo'yicha amal qilishi

Jinoyat qonunining hudud bo'yicha amal qilishi deb O'zbekiston Respublikasi hududiga kiruvchi quruqlik, suv havzasi

va havo bo'shlig'ida sodir etilgan har qanday jinoyatlar amaldagi jinoyat qonuni bilan tartibga solinishiga aytiladi.

Qilmish:

- O'zbekiston hududida boshlangan, tamomlangan, to'xtatilgan, davomli qilmishlardan bir qismi ushbu hududda sodir qilingan bo'lsa;
- O'zbekiston hududidan tashqarida sodir etilib, jinoiy oqibati esa O'zbekiston hududida yuz bergan bo'lsa;
- O'zbekiston hududida sodir etilib, jinoiy oqibati esa O'zbekiston hududidan tashqarida yuz bergan bo'lsa;
- O'zbekiston bayrog'i ostida va O'zbekiston portida ro'yxatga olingan havo, dengiz yoki daryo kemasi hech bir davlatga tegishli bo'lmagan hududda joylashgan bo'lsa va ushbu kema bortida jinoyat sodir etilsa, jinoyat O'zbekiston Respublikasi hududida sodir etilgan jinoyat deb topiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida sodir qilingan jinoyatlari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bir xilda javobgarlikka tortiladilar.

Alohida immunitetga ega bo'lgan chet el fuqarolarining O'zbekiston Respublikasi hududida sodir qilgan jinoyatlari uchun javobgarlik masalasi esa xalqaro shartnomalarga muvofiq hal qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi chet el davlati hududida sodir qilgan jinoyatlari uchun ushlab berilishi mumkin emas. Agarda, xalqaro shartnomalarda boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa.

Shaxsni chet el davlatida sodir etgan jinoyati uchun ushlab berish – xalqaro huquq qoidalariga ko'ra ekstraditsiya deyiladi.

Odatda ekstraditsiya to'g'risidagi masalalar ko'p tomonlama yoki ikki tomonlama shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Xalqaro huquq qoidalariga ko'ra agarda ushlab berilishi talab qilinayogan shaxs:

- O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lsa hamda O'zbekiston Respublikasi boshqa davlatlar bilan imzolagan shartnomalar va bitimlarda o'zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa;

• Jinoyat O'zbekiston Respublikasi hududida sodir etilgan bo'lsa;

• Sodir etilgan jinoyati ushlab berilishi talab qilinayotgan shaxsga nisbatan o'sha jinoyati uchun sud hukmi chiqarilgan va bu hukm kuchga kirgan yoki shu ayblov bo'yicha jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qaror chiqarilgan bo'lsa;

• O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi qoidalariga ko'ra shaxsni javobgarlikka tortish yoki jazoni ijro etish muddatlari o'tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan yoxud jazodan ozod qilish, shuningdek, hukmni ijro etish mumkin bo'lmasa;

• Ushlab berish to'g'risidagi talabnomaga asos bo'lgan qilmish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga ko'ra, jinoyat hisoblanmasa, ushlab berilishi mumkin emas.

Shuningdek, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasi hududida sodir qilgan jinoyati uchun boshqa davlatga ushlab berilishi mumkin emas.

Jinoyat qonunining vaqt bo'yicha amal qilishi deb Jinoyat qonuni normalarining aniq (yil, oy, kun) muddatlarda amalda bo'lishiga aytiladi.

Ushbu holatda quyidagilarni tartibga solishi nazarda tutiladi:

birinchidan, sodir qilingan ijtimoiy xavfli qilmishning jinoiyligi va jazoga sazovorligi shu qilmish sodir etilgan vaqtda amalda bo'lgan qonun bilan belgilanadi (Masalan: JK 278^5-modda. Kompyuter sabotaji jinoyati. Ya'ni o'zganing kompyuter uskunasini yoki xizmatda foydalaniladigan kompyuter uskunasini qasddan ishdan chiqarish, xuddi shuningdek kompyuter tizimini buzish (kompyuter sabotaji) jinoyati deb ta'rif berilgan).

Ushbu jinoyat turi amaldagi jinoyat kodeksiga 2007-yil 25-dekabrdagi O'RQ–137-sonli Qonuni bilan kiritilgan. Agarda shaxs tomonidan modda dispozitsiyasida ko'rsatilgan harakatlar 2007-yil 25-dekabrga qadar sodir etilgan bo'lsa, uning harakatlari jinoyat sifatida e'tirof etilmaydi. Sababi shaxs ushbu harakatlarni sodir etgan vaqda amalda bo'lgan Jinoyat kodeksida kompyuter sabotaji jinoyati mavjud bo'lmagan. Demak, ushbu qoida talablaridan kelib chiqilsa, sodir etilgan qilmishning jinoyat

ekanligi va jazoga sazovorligi o'sha qilmish sodir etilgan vaqtda amalda bo'lgan jinoyat qonunida mavjudligini bilan belgilaniladi.

Ikkinchidan, Jinoyat sodir qilingan vaqt deb sodir qilingan ijtimoiy xavfli qilmishning tamom bo'lgan jinoyat sifatida e'tirof etilish paytiga aytiladi.

Jinoyat sodir qilingan vaqt:

- ***formal tarkibli jinoyatlarda*** – JK Maxsus qism moddasida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) sodir etilishining o'zi bilan qilmish tamom bo'lgan jinoyat deb topiladi. Ya'ni, ijtimoiy xavfli qilmish bajarilgan payt jinoyat sodir qilingan vaqt deb belgilanadi;
- ***moddiy tarkibli jinoyatlarda esa*** ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqqan payt jinoyat sodir qilingan vaqt deb topiladi.

Jinoyat qonuni – O'zbekiston Respublikasi hududida bir vaqtning o'zida qonuniy kuchga kiradi.

Umumiy qoidaga ko'ra, qonunning o'zida uning kuchga kirish muddati ko'rsatilmagan bo'lsa, rasmiy e'lon qilingandan kundan boshlab kuchga kiradi.

Jinoyat qonuni o'zining amal qilish kuchini quyidagi hollarda yo'qotadi:

- ushbu qonun bekor qilinganda;
- ushbu qonunga o'zgartirish kiritilganda.

223459

1.4. Jinoyat qonunining orqaga qaytish kuchi

Jinoyat qonunining orqaga qaytish kuchi deb yangi qabul qilingan qonun kuchga kirguniga qadar sodir etilgan jinoyatlar uchun tatbiq etilishiga aytiladi.

JKning 13-moddasiga ko'ra, jinoyat qonuni quyidagi hollardagina orqaga qaytish kuchiga ega:

- qilmishning jinoiyligini bekor qiladigan;
- jazoni yengillashtiradigan;
- shaxsning ahvolini boshqacha tarzda yaxshilaydigan.

Qilmishning jinoiyligini bekor qiladigan qonun deganda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgan vaqtda amalda bo'lgan jinoyat qonuni bilan jinoyat deb topilgan qilmishning jinoiyligini bekor qiladigan yangi qabul qilingan qonunga aytiladi.

ANDIJON QISHLOQ XO'JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI

Masalan, 2019-yil 5-noyabrdagi O'RQ–579-sonli «Chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasida vaqtincha bo'lish qoidalarini buzganligi uchun javobgarligi liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida»gi Qonuni bilan JKdan 224-modda «O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarini buzish» jinoyati chiqarib tashlangan hamda ushbu turdagi harakatlarning jinoiy qilmish ekanligi bekor qilingan.

Ushbu holatda agarda chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lmagan shaxs 2019-yil noyabr oyiga qadar O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarini buzishi, ya'ni O'zbekistonda yashash huquqini beradigan hujjatlarsiz yoki haqiqiy bo'lmagan hujjatlar bilan yashashi, ro'yxatdan o'tish, propiska, ko'chish yoki turar joy tanlash yuzasidan belgilangan tartibga rioya etmasligi, bo'lish muddati tugagach chiqib ketishdan bo'yin tovlashi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining hududi orqali tranzit tarzda o'tish tartibiga rioya qilmaganligi sababli jinoiy javobgarlikka tortilib, surishtiruv, tergov yoki sud protsessi olib borilayotgan bo'lsa yoxud ushbu jinoyati uchun jazo o'tayotgan bo'lsa, chet el fuqarosiga nisbatan olib borilayotgan barcha surishtiruv, tergov va sud ishlari bekor qilinishi, shuningdek, jazo o'tayotgan bo'lsa darhol jazodan ozod etilishi tushuniladi. Demak, yangi qonun eski davrda sodir etilgan jinoyatga nisbatan tatbiq etilishini anglatadi.

Jazoni yengillashtiradigan qonun deganda sodir qilingan jinoyat uchun amalda bo'lgan jinoyat qonunida nazarda tutilgan jazo turlari yoki jazo miqdorlarini kamaytiradigan yoxud qo'shimcha jazoni bekor qiladigan, shuningdek, jazoning yengilroq turlarini tayinlanishini nazarda tutadigan yangi qabul qilingan qonunga aytiladi.

Shaxsning ahvolini boshqacha tarzda yaxshilaydigan qonun deganda sodir qilingan jinoyatda aybdor deb topilgan mahkumning jazoni o'tash sharoitlarni yengillashtiradigan, javobgarlik yoki jazodan ozod qilish asoslari va turlarini jinoyat sodir etgan shaxsning foydasiga o'zgartiradigan, sudlanganlik muddatlarini kamaytiradigan yoki rag'batlantiruvchi normalarni

joriy etadigan hamda boshqa har qanday ko'rinishda aybdorning ahvolini yengillashtiradigan yangi qabul qilingan qonunga aytiladi.

Jinoyat qonunining orqaga qaytish kuchi quyidagi shaxslarga nisbatangina qo'llaniladi:

- jinoyat sodir etgan shaxslarga;
- jazoni o'tayotgan shaxslarga;
- jazoni o'tab bo'lgan, lekin sudlanganlik maqomiga ega bo'lgan shaxslarga.

Qilmishni jinoyat deb hisoblaydigan, jazoni og'irlashtiradigan yoki shaxsning ahvolini boshqacha tarzda yomonlashtiradigan qonun orqaga qaytish kuchiga ega emas. Masalan, 2017-yil 13-iyundagi O'RQ–436-sonli «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida»gi Qonun bilan JK yangi 103^1-modda (O'zini o'zi o'ldirishga undash) bilan to'ldirilgan. Ya'ni, mazkur qonun kuchga kirguniga qadar sodir etilgan o'zini o'zi o'ldirishga undaganlik uchun jinoiy javobgarlik vujudga kelmaydi. Aks holda, qilmishni jinoyat deb hisoblaydigan qonunning orqaga qaytish kuchiga ega emasligi qoidasi buzilgan hisoblanadi.

1.5. Jinoyat qonunini sharhlash

Jinoyat qonunini sharhlash deganda jinoyat qonuni normalarini amaliyotda to'g'ri qo'llash uchun kodeksdagi atamalar va ifodalarning mazmunini ochib berishga aytiladi.

1.	Subyektiga ko'ra:	– Legal sharhlash; – Sud tomonidan sharhlash; – Ilmiy yoki doktrinal sharhlash.
2.	Usuliga ko'ra:	– Grammatik; – Tizimli; – Tarixiy; – Mantiqiy.

3.	Hajmiga ko'ra:	– So'zma-so'z (muvofiq) sharhlash; – Kengaytirilgan sharhlash; – Chegaralangan sharhlash.

Subyektiga ko'ra sharhlash:

- Legal (autentik) sharhlash;
- Sud tomonidan sharhlash;
- Ilmiy yoki doktrinal sharhlashga bo'linadi.

Legal sharhlash – qonun asosida vakolat berilgan davlat organi tomonidan sharhlashga aytilib, u «autentik» sharhlash deb ham yuritiladi. Legal sharh berish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tomonidan amalga oshiriladi. Legal sharh – umummajburiy xarakterga ega bo'lib, qonuniy kuchga ega hisoblanadi.

Sud tomonidan sharhlashnig ikki turi mavjud. Bular:

- Oliy sudi Plenumi qarorlari asosida jinoyat qonunining sharhlanishi;
- Aniq bir jinoyat ishi yuzasidan chiqarilgan hukmda jinoyat qonuniga sharh berilishi.

Ilmiy yoki doktrinal sharhlash – jinoyat huquqi sohasida faoliyat yurituvchi olimlar, ilmiy xodimlar tomonidan jinoyat qonunining maqola, monografiya, darsliklarda va boshqalarda sharhlanishiga aytiladi.

Jinoyat qonunini sharhlash usuliga ko'ra:

- Grammatik;
- Tizimli;
- Tarixiy;
- Mantiqiy turlarga bo'linadi.

Gramatik sharhash – jinoyat qonuni normalarini adabiy til me'yorlari asosida sharhlashga aytiladi.

Tizimli sharhlashda – jinoyat qonuni normalarini boshqa jinoyat qonun normalari bilan yoki boshqa huquq sohalari bilan taqqoslab sharh berilishiga aytiladi.

Tarixiy sharhlash – jinoyat qonuni normalari qabul qilingan davlatda norma qabul qilinishiga sabab bo'lgan holatlarni aniqlash asosida sharh berilishiga aytiladi.

Mantiqiy sharhlash esa – har qanday huquqiy norma mantiq qoidalari asosida sharhlanishiga aytiladi.

Jinoyat qonunini hajmiga ko'ra sharhlash:

- So'zma-so'z (muvofiq) sharhlash;
- Kengaytirilgan sharhlash;
- Chegaralangan sharhlash turlari mavjud.

So'zma-so'z sharhlash – qonun matniga aynan mos ravishda sharh berilishiga aytiladi.

Kengaytirilgan sharhlash – qonunni uning matnidan ko'ra, mazmunini kengroq ochib berilish yo'li bilan sharh berilishi tushuniladi.

Chegaralangan sharhlash esa – qonun matniga aynan belgilangan ma'no berilmay, uni chegaralangan qisqartirilgan shaklda berish orqali sharh berilishi tushuniladi.

Har qanday sharhlashda qonun mazmunining hajmini o'zgartirilishiga, yangi huquqiy normalarning ijod qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

2-mavzu: JINOYAT TUSHUNCHASI

2.1. Jinoyat tushunchasi, uning belgilari va boshqa huquqbuzarliklardan farqi

Jinoyat qonuni bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi (JK 14-moddasi 1-qismi).

Faqatgina, qilmish (harakat yoki harakatsilik) jinoyat bo'la oladi. Jinoyat sodir qilish to'g'risidagi fikr, o'y-xayol jinoyat sifatida qabul qilinmaydi.

Jinoyat belgilari quyidagilar:

- qilmishning ijtimoiy xavfliligi;
- qilmishning huquqqa xilofliligi;
- qilmishda aybning mavjudligi;
- qilmishning jazoga sazovorligi.

Qilmishning ijtimoiy xavfliligi – sodir qilingan qilmish jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi yoki shunday zarar yetkazish real xavfini tug'dirishi mumkinligini anglatadi.

Qilmishning huquqqa xilofliligi – sodir qilingan qilmishning jinoyat qonuni bilan taqiqlanganligini anglatadi.

Qilmishda aybning mavjudligi – sodir qilingan qilmish qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilgandagina jinoyat deb topilishini anglatadi.

Qilmishning jazoga sazovorligi deganda esa sodir qilingan qilmish uchun JK Maxsus qism moddalarida nazarda tutilgan jazo choralarining tayinlanishi mumkinligi tushuniladi.

Ijtimoiy xavflilik – jinoyatning *moddiy belgisini;*

Huquqqa xiloflilik esa – *formal* belgisini tashkil etadi.

2.2. Jinoyatlarni tasniflash tushunchasi va turlari

JK 15-moddasiga ko'ra, ***jinoyatlar o'zining xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga*** ko'ra tasniflanadi.

Jinoyatning ijtimoiy xavflilik xususiyati tajovuz obyekti (inson hayoti, sog'lig'i, mulk, jamoat xavfsizligi) hamda ayb shakliga (qasd, ehtiyotsizlik) qarab belgilanadi.

Jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi qilmish sodir etilishi holatlari (jinoiy niyatning amalga oshirilganlik darajasi va bosqichlari, jinoyatni sodir etish usuli, zarar miqdori va kelib chiqqan oqibatlar og'irligi, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatda sudlanuvchining roli) bilan belgilanadi.

Jinoyatlarni tasniflash – jazo tayinlash, jazoni o'tash, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, jazodan ozod qilish va boshqalarda e'tiborga olinadi.

JK 15-moddasida jinoyatlar quyidagicha tasniflangan:

- ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan;
- uncha og'ir bo'lmagan;
- og'ir;
- o'ta og'ir jinoyatlar.

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarga – qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarga – qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Og'ir jinoyatlarga – faqat qasddan sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq, lekin o'n yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

O'ta og'ir jinoyatlarga – faqat qasddan sodir etilib, qonunda o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Agarda sodir etilgan jinoyat uchun JK Maxsus qism moddasida ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazolar nazarda tutilmagan hamda boshqa turdagi jazolar nazarda tutilgan bo'lsa, ushbu jinoyatlar ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra – ***ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan*** jinoyatlar turkumiga kiradi.

Og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar – ehtiyotsizlik orqasidan sodir etilmaydi.

Sodir etilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi – JK Maxsus qism moddasida yoki modda qismida nazarda tutilgan eng og'ir jazo turining maksimal miqdoridan kelib chiqib aniqlanadi. Odatda sanksiyada nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum qilish jazosining maksimal muddatidan kelib chiqib aniqlanadi. Jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi JK Maxsus qism moddasining har bir qismi bo'yicha alohida aniqlanadi.

3-mavzu: JINOIY JAVOBGARLIK VA UNING ASOSLARI

3.1. Jinoiy javobgarlik tushunchasi va uning asoslari

Jinoyat uchun javobgarlik – jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish orqali jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir (JK 16-moddasi).

Sud tomonidan hukm qilish orqali tayinlanadigan:

- ***jazo chorasi*** – JK 43-moddasida nazarda tutilgan jazo turlaridan biri;
- ***boshqa huquqiy ta'sir chorasi*** – tibbiy yo'sindagi va voyaga yetmaganlarga nisbatan tarbiya yo'sindagi majburlov choralari;

Jazo deganda – sud tomonidan qo'llaniladigan va shaxsning huquq va erkinliklarini ma'lum muddatga cheklash yoki ulardan mahrum qilish bilan birga uni qayta tarbiyalash maqsadini ko'zlovchi davlatning majburlov chorasi tushunilad;.

Jinoiy javobgarlik asosi deganda – shaxsni jinoyat sodir etishda aybdor deb topish uchun isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar majmui tushuniladi.

Jinoiy javobgarlik asosinini sodir qilingan qilmishda JKda nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari, ya'ni obyektiv va subyektiv belgilarining bir vaqtda mavjud bo'lishligi tashkil qiladi.

4-mavzu: JINOYAT TARKIBI

4.1. Jinoyat tarkibi tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari

Jinoyat tarkibi deb – jinoyat huquqida sodir etilgan aniq bir ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb baholash uchun zarur bo'lgan obyektiv va subyektiv belgilarning minimal yig'indisiga aytiladi.

Jinoyat qonunida jinoyat tarkibi va uning belgilari tushunchasi berilmagan bo'lib, yuqoridagi ta'rif nazariy hisoblanadi. Shunga qaramasdan, «jinoyat tarkibi» tushunchasi Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, sud-tergov amaliyotida keng qo'llaniladi.

Bu belgilar jinoyat qonuni Maxsus qism normalarida mustahkamlanganligi bois, u yoki bu ijtimoiy xavfli qilmishning jinoyat deb baholanmog'i uchun zaruriy belgi bo'lib hisoblanadi.

Jinoyat tarkibining «tarkib» deb nomlanishining asosiy sababi shundaki, unda jinoyatning obyekti, obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv tomoni kabi tushunchalar (elementlar)ning bir butun holda mujassamlashganligini anglatadi.

Jinoyat tarkibining jinoiy-huquqiy ahamiyati bir qator omillarda ifodalanadi:

- jinoyat tarkibi – sodir qilingan qilmishni baholash, aniqrog'i jinoyatni kvalifikatsiya qilishning qonuniy asosi bo'lishi;
- sodir bo'lgan hodisa (holat) belgilarini JK Maxsus qismi tegishli moddalarida belgilangan jinoyat tarkibi bilan solishtirgan holda kvalifikatsiya qilishi;
- jinoyat tarkibining to'g'ri aniqlanishi jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun asos bo'lishi va bu esa o'z navbatida odil sudlovni amalga oshirish va qonunchilikni mustahkamlash hamda pirovard natijada ayblanuvchining taqdirini to'g'ri hal etishda ahamiyatga ega bo'lishi;
- bir tomondan muayyan jinoyat tarkibi belgilarini, ikkinchi tomondan sodir bo'lgan jinoyat tarkibi belgilarining bir-biriga mosligini qayd etish jinoyat sodir qilgan shaxs huquqlari

kafolatlaridan biridir, ya'ni uning o'zi sodir qilgan qilmishini qonunga muvofiq kvalifikatsiya qilishni talab qilish huquqini ifodalab berishi;

• jinoyat tarkibi va uning belgilarining aniqlanishi sud-tergov amaliyotida jinoiy-huquqiy normani qo'llashda qonuniylik prinsipining muhim kafolati bo'lishligida ifodalanadi.

4.2. Jinoyat tarkibi elementlari tushunchasi va turlari

Jinoyat tarkibi elementlarini – jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv tomonlarining zaruriy va fakultativ belgilari tashkil etadi.

Jinoyat tarkibi elementlari quyidagilar:

- jinoyat obyekti;
- jinoyatning obyektiv tomoni;
- jinoyat subyekti;
- jinoyatning subyektiv tomoni.

Jinoyat tarkibining zaruriy belgilari deganda – o'zining ahamiyatiga ko'ra, jinoyat tarkibining ma'lum bir elementida so'zsiz ishtirok etadigan belgilarga aytiladi.

Ushbu zaruriy belgilarni:

- qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabat;
- ijtimoiy xavfli qilmish;
- yosh, jinoiy javobgarlik keltirib chiqaruvchi yosh chegarasi (JK 17-moddasi);
- aqli rasolik;
- ayb (qasd yoki ehtiyotsizlik shaklida) tashkil etadi.

Jinoyat tarkibining fakultativ belgilari deganda – o'zining ahamiyatiga ko'ra, jinoyat tarkibining ma'lum bir elementida hamma vaqt ham ishtirok etishi zarur hisoblanmaydigan belgilarga aytiladi.

Ushbu fakultativ belgilarga:

• jinoyat predmeti;

• ijtimoiy xavfli oqibat;

• ijtimoiy xavfli qilmish va ijtimoiy xavfli oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish;

• jinoyat sodir qilish vaqti, sharoiti, joyi, usuli, jinoyat sodir etish vositasi yoki quroli, motiv va maqsad, shuningdek maxsus subyekt belgilari kiradi.

Jinoyat tarkibi fakultativ belgilarining ahamiyati quyidagilarda ko'rinadi:

– ular jinoyat qonunida ko'rsatilgan ayrim hollarda jinoyat tarkibining zaruriy belgisi bo'lib kelishi;

– qonunda ko'rsatilgan hollarda jinoyat tarkibining og'irlashtiruvchi, yengillashtiruvchi tarkibining zaruriy belgisi bo'lib kelishi;

– ushbu belgilar jinoyat tarkibiga kiritilmagan jazo tayinlashda og'irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi holat sifatida e'tirof etilishi mumkinligi.

Jinoyat huquqida jinoyat tarkibi quyidagi turlarga bo'linadi:

1.	Ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab:	– Asosiy (oddiy tarkibli); – Og'irlashtiruvchi tarkibli; – Yengillashtiruvchi tarkibli.
2.	Jinoyat tarkibi obyektiv tomonining xususiyatiga qarab:	– Moddiy tarkibli; – Formal tarkibli; – Kesik tarkibli.
3.	Jinoyat tarkibi belgilarining ifodalanish usuliga ko'ra:	– Oddiy tarkibli; – Murakkab tarkibli.

Asosiy (oddiy) tarkibli jinoyatlar deb – jinoyat uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi holatlarni nazarda tutmaydigan jinoyat tarkibiga aytiladi (mas: JK 97-moddasi 1-qismi «Qasddan odam o'ldirish»).

Og'irlashtiruvchi tarkibli jinoyatlar esa – o'zida jinoyat uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarni aks ettiradigan jinoyat tarkibiga aytiladi (mas: JK 97-moddasi 2-qismi «Qasddan odam o'ldirish»).

Yengillashtiruvchi tarkibli jinoyatlar – sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavfliligini kamaytiradigan yoki javobgarlikni

yengillashtiradigan holatlarni o'zida aks ettiradigan jinoyat tarkibiga aytiladi. (Mas: JK 100-moddasi «Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish»).

Moddiy tarkibli jinoyat deb – ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishini talab qiladigan va shu oqibat kelib chiqishi bilan jinoyat tugallangan jinoyat deb topiladigan jinoyat turlariga aytiladi (JK 97-moddasi «Qasddan odam o'ldirish»).

Formal tarkibli jinoyat deb – ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) sodir etilishi bilan tugallanadigan jinoyat turlariga aytiladi (mas: JK 140-moddasi «Tuhmat»). Ya'ni, JK Maxsus qismi moddasi dispozitsiyasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi obyektiv tomoni belgisi ijtimoiy xavfli qilmishning sodir etilishi tugallangan hisoblanishi uchun kifoya qiladi.

Kesik tarkibli jinoyat deb – jinoyatni tamom bo'lish vaqtini jinoyat qonuni oldingi bosqichga (jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoki suiqasd qilish bosqichiga) ko'chirilgan jinoyatlarga aytiladi (JK 165-moddasi «Tovlamachilik»).

Kesik tarkibli jinoyatlarda jinoyat obyektiv tomoni belgilari (JK Maxsus qismi moddasining dispozitsiyasida nazarda tutilgan harakatlar) bo'lib-bo'lib bajariladi va ushbu harakatlardan biri bajarilishi bilan jinoyat tugallangan deb topiladi.

JK Maxsus qism moddalarida ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishi shart yoki shart emasligi modda dispozitsiyasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib o'tiladi.

Ushbu belgiga qarab, jinoyatlarni moddiy, yoki formal tarkibli jinoyat ekanligi aniqlanadi.

Ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishi talab qilinadigan jinoyatlarda shaxsning o'ziga bog'liq bo'lmagan sababga ko'ra, ushbu oqibatning kelib chiqmasligi, ushbu jinoyatlarni formal tarkibga aylanishini anglatmaydi, balki ushbu jinoyat tamom bo'lmagan jinoyat (jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoki jinoyatga suiqasd qilish) sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Ushbu bo'linishning ahamiyati shundaki, bu jinoyatlarning tugallanish vaqtini ko'rsatadi.

Oddiy tarkibli jinoyatlar deb – jinoyat tarkibining elementlari (obyekt, obyektiv tomon, subyekt va subyektiv tomoni) bittadan ortiq bo'lmagan jinoyatlarga aytiladi.

Murakkab tarkibli jinoyatlar deb esa – jinoyat tarkibining belgilari yoki biror bir belgisi ikki yoki undan ortiq bo'lgan jinoyat turlariga aytiladi.

1.	Obyekt:	– ijtimoiy munosabatlar; – jinoyat predmeti.
2.	Obyektiv tomon:	– ijtimoiy xavfli qilmish; – ijtimoiy xavfli oqibat; – ijtimoiy xavfli qilmish va ijtimoiy xavfli oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish; – jinoyat sodir qilish vaqti, sharoiti, joyi, usuli, jinoyat sodir etish vositasi yoki quroli.
3.	Subyektiv tomon:	– ayb; – motiv; – maqsad; – emotsiyalar.
4.	Subyekt:	– jismoniy shaxs; – aqli rasolik; – jinoyat qonunida belgilangan jinoiy javobgarlik yoshiga yetganligi.

5-mavzu: JINOYAT OBYEKTI

5.1. Jinoyat obyekti tushunchasi va jinoyat tarkibidagi ahamiyati

Jinoyat obyekti deganda – O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan barcha ijtimoiy munosabatlar (*shaxsning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, tabiiy muhit, tinchlik, insoniyat xavfsizligi bilan bog'liq munosabatlar*) majmui tushuniladi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishi natijasida, ushbu ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkaziladi yoki shunday zarar yetkazish real xavfi ostida qoladi.

Ijtimoiy munosabatlar bu – insonlar o'rtasidagi ularning hayot faoliyati jarayonida vujudga keladigan ma'lum aloqalardir.

Ushbu ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazish deganda:

– shaxsning huquq va erkinliklariga;
– jamiyat va davlat manfaatlariga;
– tabiiy muhitga;
– tinchlikka;
– insoniyat xavfsizligiga tajovuz qilinishi nazarda tutiladi.

Jinoyat obyektining ahamiyati:

– obyekt jinoyat tarkibining zaruriy elementi hisoblanib, JK Maxsus qism moddasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan bo'lishligi;
– sodir etilgan qilmishda obyekt bo'lmasa, u jinoyat sifatida e'tirof etilmasligi;
– jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilishga xizmat qilishida ifodalanadi.

5.2. Jinoyat obyektining turlari

Jinoyat obyekti:
– umumiy obyekt;
– maxsus obyekt;
– bevosita obyekt turlariga bo'linadi.

Umumiy obyekt deb – jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan barcha ijtimoiy munosabatlar tushuniladi.

Maxsus obyekt deb – jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy mohiyatlari jihatidan bir-biriga o'xshash yoki yaqin bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni o'z ichiga oladigan ijtimoiy munosabatlar guruhiga aytiladi.

Maxsus obyekt JK Maxsus qismidagi jinoyat-huquqiy normalarni tasniflash imkonini beradi.

Maxsus obyekt JK Maxsus qismi tuzilishini shakllantirish bo'lim va boblarga ajratishning asosiy mezoni bo'lib hisoblanadi (masalan: JK Maxsus qismi 1-bobi «Hayotga qarshi jinoyatlar» deb nomlanib, ushbu bob 97–103-moddalarni o'z ichiga oladi. Ushbu moddalarda ko'rsatilgan jinoyat turlarning barchasida shaxsning hayoti, ya'ni uning yashashga bo'lgan huquqi obyekt bo'lib hisoblanadi. Demak, bob nomida maxsus obyekt ko'rsatib o'tilganligini anglash mumkin bo'ladi).

Jinoyatning bevosita obyekti deganda – ijtimoiy xavfli tajovuz sodir etilayotganda bevosita tajovuz qaratilgan ijtimoiy munosabat tushuniladi:

- jinoiy qilmish sodir etilishi natijasida ushbu ijtimoiy munosabat bevosita zarar ko'radi;
- bevosita obyekt JK Maxsus qismining har bir moddasida aks etadi.

Bevosita obyekt ham o'z navbatida quyidagi turlarga bo'linadi:

- asosiy bevosita obyekt;
- qo'shimcha bevosita obyekt;
- fakultativ bevosita obyekt.

Bevosita obyektning bunday bo'linishi – jinoiy tajovuz bir vaqtning o'zida bir yoki bir necha obyektga qarshi qaratilgan bo'lgandagina ahamiyat kasb etadi.

Bunday tasniflanish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ikki obyektli jinoyatlarda zarar asosiy obyektdan tashqari boshqa obyektga ham yetkazilib, u qo'shimcha bevosita obyekt bo'lib hisoblanadi.

Asosiy bevosita obyekt deb – ijtimoiy xavfli tajovuz to'g'ridan-to'g'ri qaratilgan, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan

ijtimoiy munosabatlardir (mas: JK 164-moddasi «Bosqinchilik»da asosiy bevosita obyekt – o'zga shaxsning mulk huquqi hisoblanadi).

Bu obyektga qarshi qaratilgan jinoiy tajovuzning yo'qligi – ushbu jinoyat JK 164-moddasi tarkibining mavjud emasligini anglatadi.

Qo'shimcha bevosita obyekt deb asosiy bevosita obyekt bilan bir vaqtda tajovuzga uchraydigan jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan yana bir boshqa ijtimoiy munosabatlarga aytiladi (mas: JK 164-moddasi «Bosqinchilik»da qo'shimcha bevosita obyekt – shaxsning hayoti yoki sog'lig'i bo'lib hisoblanadi. Ya'ni aybdor mulkni talon-toroj qilishda mulk egasining mulkiy huquqlariga tajovuz qilish bilan birga uning hayoti yoki sog'lig'iga ham zarar yetkazadi).

Qo'shimcha bevosita obyekt murakkab tarkibli jinoyatlarda mavjud bo'lib, boshqa jinoyat tarkibidan ajratishda muhim ahamiyat kasb etadi hamda har doim asosiy bevosita obyekt bilan birgalikda ishtirok etadi.

Fakultativ bevosita obyekt deb asosiy bevosita obyekt bilan bir vaqtda ijtimoiy xavfli tajovuzga uchrashi yoki uchramasligi ham mumkin bo'lgan jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi (masalan: JK 277-moddasi «Bezorilik»da – o'zganing mulk huquqi fakultativ obyekt bo'lib kelishi mumkin. Ya'ni aybdor asosiy bevosita obyekt hisoblangan jamoat tartibidan tashqari o'zga shaxslarning mulk huquqlariga ham zarar yetkazishi yoki zarar yetkazmasligi mumkin).

Fakultativ obyekt – shunday ijtimoiy munosabatlardirki, jinoyat sodir etilganda unga zarar yetkazilishi ham, yetkazilmasligi ham mumkin. Ushbu holat esa, jinoyatni kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi, faqatgina javobgarlik va jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida e'tirof etilishiga sabab bo'lishi mumkin.

5.3. Jinoyat obyektining jinoyat predmetidan farqi

Jinoyat predmeti – ijtimoiy xavfli tajovuz qaratilgan moddiy va nomoddiy dunyo ne'matidir. Masalan, ashyolar, pul, mol-mulk, axborot, sha'n, qadr-qimmat. Jinoyat predmeti tajovuz

natijasida zarar ko'rishi ham (JK 173-modda), zarar ko'rmasligi ham mumkin (JK 177-modda).

Jinoyat predmeti belgilarini:

• ko'z bilan ko'riladigan, o'lchovi, sifati va o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan moddiy yoki nomoddiy ne'mat bo'lishligi;

• shaxs predmetga tajovuz qilish orqali jinoyat obyektiga zarar yetkazishi (masalan: o'g'rilik jinoyatida aybdor pulni o'g'irlash orqali shaxsning mulk huquqiga tajovuz qiladi. Ushbu holatda pul – jinoyat predmeti, ushbu pul summasiga bo'lgan egalik huquqi esa – jinoyat obyekti bo'lib hisoblanadi);

• jinoyat predmeti ayrim jinoyat tarkiblarida mavjud bo'lmasligi mumkin (masalan: qasddan odam o'ldirish jinoyatida, inson tana a'zolari – jinoyat predmeti sifatida qabul qilinmaydi).

faqat ijtimoiy munosabatlarni tashkil qilishi; ushbu ijtimoiy munosabatlarning jinoyat qonuni bilan qo'riqlanganligi; hamma vaqt jinoyat tarkibining zaruriy belgisi ekanligi; obyektning yo'qligi jinoyat mavjud emasligini anglatishligi.	ko'z bilan ko'riladigan, o'lchovi, sifati va o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan moddiy yoki nomoddiy ne'mat bo'lishi; ayrim hollarda ushbu ijtimoiy munosabatlarni yuzaga keltiruvchi manba bo'lib kelishi; predmetga tajovuz qilish orqali jinoyat obyektiga tajovuz qilinishi; jinoyat qonunida nazarda tutilgan hollarda jinoyat tarkibining zaruriy belgisi bo'lib kelishida ifodalanishligi.

Jinoyat obyektini aniqlashning eng oddiy usuli – modda joylashgan bob nomini hamda modda dispozitsiyasini tahlil qilish orqali aniqlashdir.

6-mavzu: JINOYATNING OBYEKTIV TOMONI

6.1. Jinoyatning obyektiv tomoni tushunchasi va uning belgilari

Jinoyatning obyektiv tomoni deb sodir qilingan ijtimoiy xavfli qilmishning tashqi tomoni xususiyatlarini ifodalovchi qonun tomonidan o'rnatilgan belgilar majmuiga aytiladi. Ya'ni jinoyat sodir qilishning usul va yo'llarini nazarda tutuvchi belgilar yig'indisi tushuniladi.

Odatda ushbu belgilar JK Maxsus qism moddalari dispozitsiyasida ko'rsatilgan bo'ladi.

Obyektiv tomon – JK Maxsus qism har bir moddasining dispozitsiyasida jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida ko'rsatiladi.

Jinoyat tarkibi obyektiv tomoni, odatda, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini vujudga keltiradigan qilmish (harakat yoki harakasizlik)ni ifodalaydi.

Jinoyat obyektiv tomonining belgilari ikkita asosiy guruhga ajratiladi:

Birinchi guruh belgilari – o'zgarmas va har bir jinoyat tarkibi uchun xos bo'lgan va mazkur elementsiz jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydigan ***zaruriy*** belgilar;

Ikkinchi guruh belgilari esa – jinoyatning bevosita obyektiv tomoni tarkibida bo'lmasligi ham mumkin bo'lgan ***fakultativ*** xarakterga ega bo'lgan belgilar.

Ushbu ikki guruh belgilari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy xavfli qilmish;
- ijtimoiy xavfli oqibat;
- ijtimoiy xavfli qilmish va ijtimoiy xavfli oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish;
- jinoyat sodir qilish vaqti, sharoiti, joyi, usuli, jinoyat sodir etish vositasi yoki quroli.

Barcha jinoyat tarkibi turlari uchun jinoyat obyektiv tomoni ***zaruriy belgisi sifatida ijtimoiy xavfli qilmish*** (harakat yoki harakatsizlik) olinadi.

Agar sodir qilingan jinoyat ***moddiy tarkibli*** bo'lsa: ***ijtimoiy xavfli oqibat, ijtimoiy xavfli qilmish va ijtimoiy xavfli oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish*** ham jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi sifatida e'tirof etiladi.

1.	Moddiy tarkibli	– ijtimoiy xavfli qilmish; – ijtimoiy xavfli oqibat; – ijtimoiy xavfli qilmish va ijtimoiy xavfli oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish;	– jinoyat sodir qilish vaqti, sharoiti, joyi, usuli, jinoyat sodir etish vositasi yoki quroli.
2.	Formal tarkibli	– ijtimoiy xavfli qilmish.	
3.	Kesik tarkibli	– ijtimoiy xavfli qilmish.	

Ijtimoiy xavfli qilmish deb jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini vujudga keltiradigan ongli, irodaviy, aniq ya murakkab, xususiyatiga ko'ra: faol (aktiv) va nofaol (passiv) xulq-atvor (harakat yoki harakatsizlikka) aytiladi.

Yengib bo'lmas kuch ta'sirida (tabiat hodisalari yoki tabiiy reflekslar ta'siri ostida) sodir etilgan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish sifatida baholanmaydi.

6.2. Ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi sifatida

Qilmish	– harakat
	– harakatsizlik

Harakat – shaxsning ijtimoiy faol (aktiv) xulq-atvori;

Harakatsizlik esa shaxsning passiv xulq-atvori bo'lib, shaxs o'ziga qonun yoki qonunosti normativ hujjatlari, boshqa maxsus qoidalar asosida yuklatilgan vazifalarni bajarmaslikda ifodalanadi.

Harakatsizlik orqali sodir qilingan qilmish uchun jinoiy javobgarlik – shaxsning o'zi bajarishi shart bo'lgan vazifalarini real imkoniyati bo'la turib bajarmasa, lozim darajada bajarmasa va buning natijasida jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetsa yoki zarar yetishining real xavfi vujudga kelsa kelib chiqadi.

Harakatsizlik orqali sodir etilgan jinoyatlarda oqibat kelib chiqmasa, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortib bo'lmaydi.

Harakatsizlik natijasida jinoiy javobgarlik kelib chiqish shartlari	• shaxsga qonun yoki boshqa normativ hujjatlar bilan majburiyatlarning yuklatilganligi; • ushbu majburiyatlarni bajarish uchun real imkoniyatlarining mavjudligi; • shaxs o'z majburiyatini bajarmasligi oqibatida jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazilganligi.

Shaxsga yuklatilgan majburiyatlarning kelib chiqishining huquqiy asosini quyidagilar tashkil qiladi:

- qonun yoki qonunosti normativ hujjatlar;
- xizmat vazifasi yoki kasbiy majburiyati;
- qarindoshlik munosabatlari;
- shaxsning ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqqunga qadar bo'lgan xulq-atvori natijasida shaxsga ma'lum bir majburiyatlarning yuklatilishi. Ya'ni shaxsning o'zi jabrlanuvchini xavfli ahvolga solib qo'yganligi.

6.3. Ijtimoiy xavfli oqibat jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi sifatida

Jinoiy oqibat deganda – ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishi natijasida jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarda yuz beradigan salbiy o'zgarishga aytiladi.

Ijtimoiy xavfli oqibat odatda:

- asosiy va qo'shimcha;
- oddiy va murakkab;
- moddiy va nomoddiy ko'rinishlarda bo'ladi.

Moddiy ko'rinishdagi oqibatlar o'z navbatida – ***mulkiy va jismoniy*** xususiyatdagi oqibatlarga bo'linadi. Mulkiy xususiyatdagi oqibatlar – ancha, ko'p, juda ko'p miqdordagi zarar ko'rinishda bo'lsa, jismoniy xususiyatdagi oqibatlar – odamning o'limi, tan jarohati ko'rinishida bo'ladi.

Nomoddiy ko'rinishdagi oqibat esa – ***zarar va ziyon*** ko'rinishidagi oqibatlarga bo'linadi (Masalan, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlariga, davlat va jamiyat manfaatlariga zarar yetkazish).

Asosiy va qo'shimcha oqibat esa – murakkab tarkibli jinoyatlarda mavjud bo'ladi. Ya'ni aybdor o'zining bir harakati bilan jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ikkita obyektga zarar yetkazadi va ikkita oqibat keltirib chiqarishiga sabab bo'ladi (mas: JK 164-moddasi «Bosqinchilik»da aybdor mol-mulkka zarar yetkazish bilan birga shaxsning hayoti yoki sog'ligiga ham zarar yetkazishi mumkin).

6.4. Jinoyat huquqida sababiy bog'lanish tushunchasi

Sababiy bog'lanish – sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish va uning natijasida kelib chiqqan ijtimoiy xavfli oqibat o'rtasidagi bog'liqlikdir.

Sababiy bog'lanish – moddiy tarkibli jinoyatlar uchun jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi bo'lib hisoblanadi.

Sababiy bog'lanishning quyidagi mezonlari mavjud:

- vaqt mezoni;
- reallik mezoni;
- muqarrarlik mezoni.

Moddiy tarkibli jinoyatlarda qilmish va oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish mavjudligini aniqlashda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- sodir etilgan qilmish va uning natijasida kelib chiqqan oqibatning ijtimoiy xavfli va huquqqa xilof bo'lganligi;
- sodir qilingan qilmish tufayli o'sha oqibat kelib chiqqanligi;

- kelib chiqqan oqibat sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishning yoxud bu qilmish sodir etilishidan ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishining real xavfi mavjud bo'lishi lozimligi;

- bir necha oqibat yuzaga kelganida ushbu qilmish har bir oqibatning sababi bo'lganligi yoki boshqa oqibatlarni keltirib chiqargan bir oqibatning sababi bo'lganligi va boshqalar.

6.5. Jinoyat obyektiv tomonining fakultativ belgilari

Jinoyat sodir qilish joyi, vaqti, holati, usuli, quroli va vositasi jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilarini tashkil etadi.

Jinoyat sodir etilgan joy – bu jinoyat sodir qilingan va tamomlangan ma'lum chegaralangan hudud, makon, joy, geografik nuqta hisoblanadi.

Jinoyat sodir qilish vaqti – jinoyat sodir etilgan aniq paytni ifodalaydigan belgilar majmui.

Jinoyat sodir qilish usuli – bu jinoyat sodir qilinayotganda aybdor tomonidan jinoyatni sodir qilishda ishlatiladigan aniq usul va uslublar birligidir.

Jinoyat sodir qilish quroli – shaxs jinoyat predmetiga yoki shaxsga bevosita ta'sir ko'rsatish uchun foydalangan moddiy ashyo. Ya'ni aybdor jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektga zarar yetkazish maqsadida foydalangan moddiy ashyo tushuniladi.

Jinoyat sodir qilish vositasi esa – shaxs jinoyat sodir qilishni yoki jinoyat izlarni yo'qotishni osonlashtirish uchun foydalangan tashqi dunyo ne'mati.

Odatda, jinoyat sodir qilish vositasi bilan jinoyat obyektiga to'g'ridan-to'g'ri zarar yetkazilmaydi va ushbu belgi jinoyat sodir qilish vositasini jinoyat sodir qilish qurolidan farqlovchi asosiy xususiyat hisoblanadi.

Jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilari muayyan jinoyat tarkibining zaruriy va zaruriy bo'lmagan belgilari bo'lishi mumkin.

Agarda JK Maxsus qism moddasi dispozitsiyasida ushbu belgilar to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa, ular zaruriy belgi sifatida e'tirof etiladi. Fakultativ belgi jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanmaganda esa, jinoyatni kvalifikatsiyasiga ta'sir etmasada, jazo tayinlanashda javobgarlikni og'irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi holat sifatida hisobga olinishi mumkin.

7-mavzu: JINOYATNING SUBYEKTIV TOMONI

7.1. Jinoyatning subyektiv tomoni tushunchasi va belgilari

Jinoyat tarkibining subyektiv tomoni – Jinoyat qonunida jinoyat deb belgilangan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsning o'z qilmishiga bo'lgan ruhiy munosabati tushuniladi.

Subyektiv tomon belgilari quyidagilarni tashkil etadi:

- ayb;
- motiv;
- maqsad.

Ayb – subyektiv tomon zaruriy belgisi, ***motiv, maqsad, emotsiyalar*** esa – fakultativ belgisi sanaladi.

Jinoyat tarkibida subyektiv tomonning bo'lmasligi jinoiy javobgarlikni istisno qiladi. Jinoyatning subyektiv tomonini to'g'ri aniqlash jinoyatchi shaxsning ijtimoiy xavfliligi darajasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda subyektiv tomonning ahamiyati quyidagilarda ko'rinadi:

- subyektiv tomon – har qanday jinoyat tarkibining zaruriy belgisidir. Uning yo'qligi qilmishda jinoyat tarkibining mavjud emasligini anglatadi;
- tegishli jinoyat tarkibining subyektiv tomoni va uning barcha belgilarining to'g'ri o'rganilganligi jinoyatni to'g'ri va asosli kvalifikatsiya qilishning zaruriy shartidir;
- subyektiv tomonning to'g'ri belgilanganligi aybdor shaxsga nisbatan jinoiy javobgarlik, jazo muddati va miqdorini to'g'ri belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi;
- subyektiv tomonning to'g'ri belgilanishi qonuniylikni ta'minlash va mustahkamlashning zaruriy shartidir.

7.2. Jinoyat subyektiv tomonining zaruriy belgisi sifatida ayb va uning shakllari

Ayb – jinoyat qonuni bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsning o'zi sodir etgan ijtimoiy xavfli

qilmishiga va uning oqibatlariga bo'lgan ichki ruhiy munosabati tushuniladi.

Aybning ruhiy munosabat sifatidagi ***tafakkuriy*** va ***irodaviy*** holatlari mavjud bo'lib, ular birgalikda aybni shakllantiradi. Tafakkuriy va irodaviy holatlarning turli kombinatsiyalari aybning turli shakl va turlarini vujudga keltiradi.

Tafakkuriy holati bu – shaxs o'zi sodir etayotgan ijtimoiy xavfli qilmishining xavflilik xususiyatini anglab yetayotganligini ifodalasa;

Irodaviylik holati – shaxs o'z qilmishini boshqara olish imkoniyatini anglatadi.

Aybsiz holda zarar yetkazishda – aybning tafakkuriy va irodaviy holatining mavjud bo'lmaganligi sababli jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydi.

Ayb shakllari JK 20-moddasiga ko'ra, ***qasd va ehtiyotsizlik*** ko'rinishida bo'ladi.

Qasddan jinoyat sodir etish tushunchasiga ta'rif berishda jinoyat moddiy yoki formal tarkibli jinoyat ekanligini e'tiborga olish lozim bo'ladi.

Qasd turlari ikki xil:

- to'g'ri qasd;
- egri qasd.

Moddiy tarkibli jinoyatlarda, agar shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishini istagan bo'lsa, bunday jinoyat to'g'ri qasddan sodir etilgan deb topiladi;

Agar shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, bunday jinoyat egri qasddan sodir etilgan deb topiladi.

Formal tarkibli jinoyatlarda esa shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan va shunday qilmishni sodir etishni istagan bo'lsa, jinoyat qasddan sodir etilgan deb topiladi.

Formal tarkibli jinoyatlarda – egri qasd majud bo'lmaydi degan fikrlar mavjud. Shu bilan birga, formal tarkibli jinoyatlar egri qasddan ham sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi fikrni

bildirish mumkin (masalan: JKning 103-moddasida nazarda tutilgan o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish jinoyati).

Aybning qasd shaklini to'g'ri va egri qasd shakliga ajratish – aynan qasdning irodaviy holatiga bog'liq bo'ladi.

Jinoyat huquqida qasdning yana boshqa shakllari ham mavjud bo'lib, ular:

- qasdning kelib chiqish vaqtiga ko'ra: ***oldindan vujudga kelgan qasd*** yoki ***to'satdan yuz bergan qasd***;
- shaxs qilmishining xususiyatiga qarab: ***aniq*** va ***muqobil*** qasd shaklariga bo'linadi.

Muqobil qasdda – shaxs sodir etgan qilmishi natijasida amalda kelib chiqqan oqibatiga qarab qilmish kvalifikatsiya qilinadi.

Qasd shakllari sodir qilingan ijtimoiy xavfli qilmishlarni tasniflashda, kvalifikatsiya qilishda, jinoyat tarkibini to'g'ri tahlil qilishda va jazo turlarini individuallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ehtiyotsizlik orqasidan jinoyat sodir etish deb – ijtimoiy xavfli qilmishni o'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik orqasidan sodir etishga aytiladi.

Ya'ni ehtiyotsizlikning ikki shakli mavjud. Ular:

- o'z-o'ziga ishonish;
- beparvolik.

Agar jinoyatni sodir etgan shaxs o'z xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yeta turib, ehtiyotkorlik chora-tadbirlariga ongli ravishda rioya etmagan holda bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qilgan bo'lsa, bunday jinoyat **o'z-o'ziga ishonish** oqibatida sodir etilgan deb topiladi.

O'z-o'ziga ishonishning egri qasddan asosiy farqi – *aybning irodaviy holatiga* ko'ra aniqlanadi.

Ya'ni egri qasdda shaxs oqibat kelib chiqishiga *ongli ravishda yo'l qo'yib bersa*;

O'z-o'ziga ishonishda ushbu oqibatning kelib chiqmasligiga *asossiz ravishda umid qiladi.*

Jinoyat beparvolik orqasidan sodir etilgan deb – agarda shaxs o'zining xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy

xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yetmasada, lekin ko'zi yetishi lozim va mumkin bo'lsa, bunday jinoyat **beparvolik** orqasidan sodir etilgan deb aytiladi.

Beparvolikning aybsiz holda zarar yetkazishdan farqi esa – aybning tafakkuriy va irodaviy holatiga bog'liq bo'ladi.

Ya'ni, tafakkuriy holat beparovlikda shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligini o'sha vaziyatga ko'ra bilishi yoki anglashi lozimligini ifodalasa;

irodaviy holat – oqibatning oldini olishga harakat qilmaganligida ifodalanadi.

Aybsiz holda zarar yetkazishda esa, shaxs:

- o'z xulq-atvorini ijtimoiy xavfliligini anglamaganligi, anglashi lozim ham bo'lmaganligi – tafakkuriy holat;
- oqibatning oldini olish imkoniyatining haqiqatda mavjud emasligi esa – irodaviy holatini tashkil qiladi (moddiy tarkibli jinoyatlar uchun).

Demak, aybsiz holda zarar yetkazganda, shaxs harakatlarida jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi.

Odatda, aybning ehtiyotsizlik shakli formal tarkibli jinoyatlarda mavjud bo'lmaydi. Biroq, ehtiyotsizlikdan ham sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi fikrlar ham mavjud. Masalan, yuqorida nazarda tutilgan holat, ya'ni JKning 103-moddasida nazarda tutilgan o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish jinoyati ham egri qasddan ham o'z-o'ziga ishonish orqali sodir etilish mumkin.

AYB			
№	Ayb shakllari	Tafakkuriy holati	Irodaviy holati
1.	To'g'ri qasd	qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglaganligi; ijtimoiy xavfli oqibatlarga ko'zi yetganligi.	shunday oqibatlarning kelib chiqishini istab harakat qilgan bo'lishligi.

2.	Egri qasd	qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglaganligi; ijtimoiy xavfli oqibatlarga ko'zi yetganligi.	shunday oqibatlarning kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'yib berganligi.
3.	O'z-o'ziga ishonish	o'zining xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligini ko'ra bilganligi.	ehtiyotkorlik chora-tadbirlariga ongli ravishda rioya qilmagan holda, ijtimoiy xavfli oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qilganligi.
4.	Beparvolik	o'zining xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi muminligiga ko'zi yetmasa-da, lekin ko'zi yetishi lozim va mumkin bo'lishligi.	oqibatning oldini olishga harakat qilmaganligi.
5.	Aybsiz holda zarar yetkazish	o'zining xulq-atvori ijtimoiy xavfliligini anglamaganligi, anglashi lozim ham bo'lmaganligi.	oqibatninng oldini olish imkoniyatining haqiqatda mavjud emasligi.

Ijtimoiy xavfli qilmishni qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan sodir qilgan shaxsgina jinoyat sodir etishda aybli deb topiladi.

7.3. Murakkab aybli jinoyatlar

Ayrim hollarda qasddan jinoyat sodir etilishi natijasida boshqa bir og'ir oqibatlar kelib chiqadi. Lekin bu oqibat shaxsning qasdi bilan qamrab olinmaydi, balki bu shaxsning ehtiyotsizligi natijasida kelib chiqadigan oqibat hisoblanadi. Bunday holatda agar qonun

sodir etilgan qilmishni qattiqroq javobgarlik bilan bog'lagan bo'lsa, sodir qilingan qilmish qasddan sodir etilgan jinoyat deb topiladi.

Ushbu turdagi jinoyatlar ***murakkab aybli jinoyatlar*** deb nomlanib, JK Maxsus qism bitta moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi (masalan: JK 104-moddasi 3-qism «d» bandi, «jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan og'ir tan jarohati yetkazish», JK 256-moddasi 3-qism «a» bandi, 258-moddasi 2-qism «a» bandi, 259-moddasi 2-qism «a» bandi).

7.4. Xato tushunchasi va turlari

Xato deganda – shaxs o'zi sodir qilgan qilmishining yuridik va faktik holatlariga nisbatan adashishi tushuniladi.

Adashganlik xususiyatiga ko'ra, xato: ***yuridik va faktik*** xato turlariga bo'linadi.

Yuridik xato deb – shaxs sodir qilgan qilmishining jinoyat huquqiy baholanishi haqidagi noto'g'ri tasavvurga ega bo'lishiga aytiladi.

Odatda, yuridik xato jinoyat kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi. Sababi, qilmish jinoyat qonunchiligi bo'yicha tavsiflanadi, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilgan shaxsning subyektiv fikri bo'yicha emas (masalan: shaxs birovga bergan qarzini qarzdor o'z vaqtida qaytarib bermaganligi uchun qarzdorga tegishli bo'lgan avtomashinani egasining ruxsatisiz uyiga olib kelib qo'yadi. Ushbu holatda u o'z harakatlarini qonuniy deb hisoblaydi. Lekin jinoyat qonuni ushbu holatda uning harakatlarini JK 229-moddasi «O'zboshimchalik» bo'yicha jinoyat deb topadi).

Faktik xato deb esa – jinoyat tarkibining obyektiv belgisi hisoblanadigan holatlar to'g'risidagi noto'g'ri tushunchasi. Faktik xato jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qiladi.

XATO		
№	Xato turlari	Xato ko'rinishlari
1.	Yuridik xato	– shaxs sodir etgan qilmishini jinoyat deb hisoblaydi, lekin sodir qilgan qilmishida jinoyat belgilari bo'lmaydi;

		– shaxs o'z qilmishini jinoyat deb hisoblamaydi, lekin ushbu qilmishda jinoyat belgilari mavjud bo'ladi; – shaxs sodir etgan qilmishining huquqiy oqibatlarini, jinoyat uchun belgilanadigan jazo turi va miqdori haqidagi noto'g'ri tasavvuri.
2.	Faktik xato	– obyektga nisbatan; – jinoyat predmetiga nisbatan; – jabrlanuvchi shaxsiga nisbatan xato; – sodir qilgan qilmishi xususiyatiga nisbatan; – oqibatga nisbatan; – sababiy bog'lanishga nisbatan; – og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarga nisbatan xato.

7.5. Jinoyatning motivi, maqsadi va emotsiyalar

Jinoyat motivi deyilganda – inson faolligi manbasi, ichki yo'naltiruvchi hissiyot tushuniladi.

Motiv subyektni o'z maqsadlari sari yo'naltiruvchi kuch hisoblanadi. U ma'lum inson ehtiyojlari va qiziqishlaridan yuzaga keladi va shaxsni jinoyat sodir qilishga yo'naltiradi (masalan: «Rashk motivi» orqali qasddan odam o'ldirish jinoyati JK 97-moddasi 1-qismi).

Jinoyat maqsadi esa – ijtimoiy xavfli qilmishni bajarishdan ko'zlangan manfaat (masalan: «Boshqa bir jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini osonlashtirish maqsadida» qasddan odam o'ldirish JK 97-moddasi 2-qismi «o» bandi).

Ushbu belgilar jinoyat tarkibi subyektiv tomonining fakultativ belgisi sifatida jinoyatni kvalifikatsiya qilishda e'tiborga olinmasa-da, jazo tayinlashda e'tiborga olinadi. Ayrim hollarda, ushbu belgilar JK Maxsus qism moddalari dispozitsiyasida

to‘g‘ridan-to‘g‘ri jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida ham nazarda tutilgan bo‘lsa, ular jinoyat tarkibining zaruriy belgisi bo‘lib keladi (masalan: JK 130-moddasi «Pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish» jinoyati dispozitsiyasida maqsad jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida ko‘rsatilgan).

Emotsiyalar – insonning boshdan kechirayotgan his-tuyg‘u va kechinmalaridir. Inson boshdan kechirishi mumkin bo‘lgan barcha emotsiyalar ichida faqat affektgina jinoiy-huquqiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Affekt fiziologik yoki patologik bo‘lishi mumkin. Affekt holatida jinoyat sodir etish jazoni yengillashtiruvchi holat hisoblanadi, sharti shuki, u jabrlanuvchining zo‘rlik, og‘ir haqorat yoki boshqacha g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan bo‘lishi lozim.

8-mavzu: JINOYAT SUBYEKTI

8.1. Jinoyat subekti tushunchasi va uning belgilari

Jinoyat subyekti deganda – ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilgan va jinoyat qonunida belgilangan yoshga yetgan aqli raso jismoniy shaxs, ya'ni O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lmagan shaxs tushuniladi.

Subyekt ham jinoyat tarkibining bir elementi sifatida, o'zining zaruriy va fakultativ belgilariga ega.

Jinoyat subyektining zaruriy belgilari quyidagilar:

– jismoniy shaxs bo'lishlik;

– aqli rasolik;

– jinoyat qonunida belgilangan yoshga yetganlik.

Ayrim hollarda, jinoyat qonuni, subyektda yuqorida ko'rsatilgan belgilardan tashqari qo'shimcha belgilarning ham bo'lishini talab qiladi. Bu belgilarga ega bo'lgan shaxslar esa – ***maxsus subyekt*** deb yuritiladi.

8.2. Jinoyat subyektining yoshi

Jinoyat qonuni bo'yicha jinoyat sodir etgunga qadar jinoiy javobgarlik yoshiga yetgan aqli raso jismoniy shaxsgina, jinoiy javobgarlikka tortiladi.

JK 17-moddasiga ko'ra, subyekt yoshining to'rtta darajasi ko'rsatiladi. Bular: – 13 yosh, 14 yosh, 16 yosh va 18 yosh.

Jinoyatning umumiy subyekt yoshi – 16 yosh qilib belgilangan.

Jinoyat qonuni talabiga ko'ra, jinoyat sodir etgan shaxsning yosh chegaralari aniq belgilanishi uchun shaxsning tug'ilgan yili, oyi, kuni aniqlanishi lozim. Shaxsni ma'lum bir yoshga to'lgan deb topish uchun uning yoshi tug'ilgan kunidan emas, balki keyingi kundan boshlab hisoblanadi.

Odatda, yosh tug'ilganlik to'g'risidagi ma'lumot (tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma yoki pasport)ga qarab aniqlanadi.

Agar shaxsning yoshi haqida aniq ma'lumot bo'lmasa, tug'ilgan vaqt sud tibbiyot ekspertizasi orqali aniqlanadi. Bunda

ham xulosa aniq bir yoshni emas, balki yoshning minimal va maksimal chegarasini aytadi (masalan: shaxs 14-16 yoshlar orasida).

Bunday holda shaxsning yoshi ekspertiza bergan xulosadagi minimal yosh chegarasidan kelib chiqib tayinlanadi. Bunda shaxsni tug'ilgan kuni deb, shu minimal yoshdan kelib chiqib aniqlangan yilning 31-dekabridan olinadi.

JK Maxsus qism moddalarida – ushbu jinoyatlar uchun moddaning o'zida to'g'ridan-to'g'ri yosh chegarasi ko'rsatilmaydi. Har bir modda bo'yicha yosh chegarasi JK 17-moddasi orqali aniqlanadi. Chunki ushbu moddada barcha jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik yoshi chegarasi aniq belgilangan.

8.3. Aqli rasolik va aqli norasolik tushunchalari

Aqli rasolik deb – shaxs jinoyat sodir etish vaqtida o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglaganlik va o'z harakatlarini boshqara olganligiga aytiladi.

Jinoyat sodir etish vaqtida o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan va o'z harakatlarini boshqara olgan shaxsgina aqli raso shaxs deb topiladi.

Agar ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilish vaqtida o'z harakatlarini ahamiyatini anglay olmagan yoki o'z harakatlarni boshqara olmagan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

Bunday shaxslar aqli noraso shaxs deb topiladi.

Shaxsni aqli noraso deb topish uchun quyidagi mezonlar bo'lishi talab qilinadi:

- Yuridik mezon;
- Tibbiy mezon.

Yuridik mezon ham o'z navbatida:

– *tafakkuriy* (shaxs sodir qilgan ijtimoiy xavfli qilmishining xavflilik xususiyatini anglamaslik);

– *irodaviy* (o'z harakatlarini boshqara olmaslik) kabi belgilaridan tashkil topadi.

Mana shu ikki belgidan birining mavjud bo'lishi yuridik mezon mavjudligini ko'rsatadi. Ya'ni shaxs ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilish vaqtida o'z harkatlarini *anglay olmagan*